

HUVAYDO IJODIGA QUR'ON VA HADISLAR TA'SIRI**Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna***Ichki ishlar vazirligi**Buxoro akademik litseyi**Filologiya fanlari bo'yicha**falsafa doktori (PhD), dotsent*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xojanazar Huvaydoning adabiy merosi Qur'on oyatlari va hadislari asosida tahlil qilinadi. Muallif Huvaydo asarlarida islomiy manbalar, xususan, Qur'on va hadislarning badiiy va ma'naviy-ta'siri qatlamini o'rganadi. Adibning diniy bilimlarga ega bo'lgani, shuningdek, diniy-ma'rifiy mazmundagi g'oyalarni o'z asarlarida teran yoritgani ilmiy asoslar bilan ko'rsatib beriladi. Maqolada Huvaydoning "Rohati dil" asaridagi diniy terminlar, Qur'on qissalari, hadis mazmunlari bilan bog'liq obrazlar misollar orqali tahlil etiladi. Bu yondashuv adibning ilohiy manbalar bilan bog'liqligini ochib beradi va uning asarlarida Qur'oni karim va hadislarning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Qur'on, hadis, tasavvuf, diniy obrazlar, g'azal, diniy-ma'rifiy g'oyalar, ilohiy manbalar.

Har qanday zamonda ham farzand tarbiyasi tarbiyachilarining muqaddas burchi bo'lib kelgan. Farzandning tarbiyasi ota-onadan katta jismoniy va ruhiy kuch talab qiladi. Farzand kamolotga yetguncha tarbiyalash, turmush qurish, mustaqil hayotini yo'lga qo'yish, tinch va xotirjam yashash, o'zini to'g'ri tutish bo'yicha ota-ona maslahatlar berish kerak. Voyaga etgan bola esa ota-onasiga hurmat va ehtirom ko'rsatishi kerak. Agar ota-onalar kasal bo'lib qolsa, bolalar har doim mehribon bo'lishlari va bemor uchun zarur bo'lgan hamma narsani qilishlari kerak. Huvaydo aytganidek, insonning ota-onasi oldidagi xizmatini faqat qarzini qaytarish ehtiyoji deb hisoblash mutlaqo noto'g'ri.

“Ota-onasini kim og'ritibdur
Xudoning rahmatidan benasibdur”
(“Rohati dil”. –B.69)

(Kim ota-onasini ranjitgan bo'lsa, u kishi Xudoning rahmatidan benasib bo'ladi”.

Bu – ota-onaga hurmat qilish, ularni xafa qilmaslik haqida ogohlantiruvchi hikmatli so'zdir. Ota-onaning roziligi Xudoning roziligidir, degan yuksak axloqiy qadriyatni aks ettiradi.

“Ota-onasini og'ritgan ummat,
Alar hargiz behisht diydori ko'rmas”.
(“Rohati dil”. –B.69)

(Kimki ota-onasini ranjitgan bo 'lsa, u kishi hech qachon jannatni ko 'rmaydi).

“Bo‘lubdur voldam ham saxti noxush,
Alarming boshlarin olub ba og‘ush.
Alarga dam-badam men suv berurman,
Necha kundur bu xizmatni qilurman,
Haqqi manda alarming qolmag‘ay deb,
Mabodo rozi mandan bo‘lmag‘ay deb,
Dedi payg‘ambari bahri shafoat,
Muningdek aylasang sad sol xizmat,
Ado bo‘lmasturur o‘ndan birisi,
Alarning rizosi, Tangri rizosi”.

(“Rohati dil”. –B.56)

(Onam og‘ir kasal bo‘lib qoldi, boshlarini quchoqlab yig‘ladim. Har daqiqa suv berdim, qarzdor qolmayin deb, mendan rozi bo‘lsin deb, qancha kun qaradim. Payg‘ambar dedi: “Yuz yil xizmat qilishing kerak, bu xizmating o‘ndan biriga ham etmaydi”, – dedi. Ota-onaning roziligi Allohnning roziligidir).

Huvaydo ota-onaga xizmat qilish yuksak axloqiy fazilat ekanligini tinimsiz singdirib boradi, ularni hamisha bir-birini sevishga chorlaydi.

Qur’oni karimda ota-onaya roziligi eng muhim axloqiy va diniy burchlardan biri sifatida ta’kidlanadi. Alloh taolo bir necha oyatlarda O‘ziga ibodat qilish bilan bir qatorda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, ota-onaga hurmat va itoat, ularning rozilagini olish – islom dinida eng yuksak fazilatlardan biridir.

Quyida Qur’onda ota-onaya roziligi haqida aytilgan asosiy oyatlar keltiriladi:
“Rabbing faqat O‘zigagina ibodat qilishingizni va ota-onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi...” (*Isro surasi, 23-oyat*)

Bu oyatda Allohga ibodat qilish va ota-onaga yaxshilik qilish yonma-yon tilga olinmoqda – bu ulug‘lik va muqaddaslik darajasini ko‘rsatadi.

“...Ularning biri yoki har ikkisi huzuringda qarilikka etsa, ularga “uf” (deyish) ham demang, ularni jerkimang va ularga yumshoq, go‘zal so‘z aytинг!” (*Isro surasi, 23-oyat*). Bu oyatda ota-onaga hatto “uf” degan eng yengil e’tirozli so‘z aytish ham man etilmoxda. Bu ota-onaga nisbatan muloyimlik va hurmatning eng yuksak darajasini talab qiladi.

“Va ularga rahm qilgin, meni kichikligimda parvarish qilganlaridek (deya duo qilgin)” (*Isro surasi, 24-oyat*). Bu oyatda ota-onani hurmat qilish bilan birga ular uchun rahmat tilash, ularning mehnatini qadrlab duo qilish buyriladi.

Qur’oni karimda ota-onaning roziligi – Ollohnning roziligi bilan bog‘langan. Ularning xizmatini qilish, duo qilish, ularni hech ranjitmaslik, ayniqsa, qariganda g‘amxo‘rlik qilish – musulmonning asosiy burchlaridandir. Ota-onani ranjitish esa og‘ir gunoh hisoblanadi.

Hadislarda ham ota-onan roziligi haqida juda ko‘plab ta’kidlar mavjud bo‘lib, ularning mazmuni shuni anglatadiki: Ollohning roziligi ota-onaning roziligi bilan, Ollohning g‘azabi esa ota-onaning g‘azabi bilan bog‘liqdir. Quyida eng mashhur va mazmunli hadislardan namunalar keltiramiz:

“Allohning roziligi ota-onaning roziligidadir, Allohning g‘azabi esa ota-onaning g‘azabidadir”.

Bu hadis ota-onani rozi qilish orqali Allohnini rozi qilish mumkinligini aniq ko‘rsatadi.

Bir kishi Rasululloh (s.a.v.)dan so‘radi:

“Eng ko‘p yaxshilik qiladigan kimsam kim?”

Rasululloh dedilar:

– “Onang.”

So‘radi:

– “Keyin kim?”

Dedilar:

– “Onang.”

“Keyin-chi?”

– “Onang”

– “Keyin-chi?”

– “Otang”¹

Bu hadis onanining haqqi va mehnatini uch marta ta’kidlab, uning roziligi ayniqsa muhim ekanini bildiradi.

“Ota-onasi (yoki ularning biri) qariganda oldida bo‘lib, (ularga xizmat qilmasdan) jannatga kirmagan odamning burni erga ishqalsin (ya’ni halokatda bo‘lsin)! ”² Bu hadis ota-onaning xizmatida bo‘lish – jannatga sabab, e’tiborsizlik esa halokat sababidir.

“Katta gunohlar orasida Allohga shirk keltirish va ota-onaga osiy bo‘lishdir.”

(Buxoriy, “Al- adab al-mufrad”. –B.53)

Shu bilan birga, boshqa hadisda Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: “Ota-onaga yaxshilik qilish umrni ziyoda qiladi, rizqni kengaytiradi.” (Buxoriy, “Al- adab al-mufrad”. – B.49)

Hadislardan ota-onan roziligini Allohning roziligi bilan bevosita bog‘laydi. Ota-onaga yaxshilik qilish, ularni rozi qilish, xizmatda bo‘lish – musulmon uchun eng savobli va zarur amallardan biridir. Ularni ranjitiish esa eng katta gunohlardan biri sanaladi. Huvaydo ana shu g‘oyalarni o‘z asariga olib kirdi. Qur’on va hadislardan foydalanib, “Rohati dil”ni o‘z kitobxoniga etkaza oldi.

¹ Al Buxoriy. Al adab al-mufrad.–T.:Movorounnahr, 2006. –B.55

² O‘scha asar. –B.55.

“Rohati dil”da tarbiya bilan bog‘liq holda hayo, xushmuomalalik, rostgo‘ylik, insonning jismonan kamchiliklari ustidan kulmaslik, chunki bu unga bog‘liq emasligi, har kimda ham shunga o‘xhash kamchiliklar paydo bo‘lishi mumkinligi haqida so‘z yuritiladi:

“Kishining aybi bo‘lsa, kulma zinhor,
Sening aybingga ham kulguvchilar bor”.

(Rohati dil. –B.73)

Yuqoridagi bayt adibning folklorizmlardan unumli foydalanganligini isbotlaydi. Didaktik asarlarning badiiy qiymatini, albatta, xalq maqollari oshiradi. Huvaydo ham bu usuldan unumli foydalangan.

Og‘izdan ko‘p chiqib ko‘p gapiresh ham yomon odob hisoblanadi. Oz va yaxshi gapiradigan odam, uni bezatadi. Ko‘p gapiradigan kishi odamlardan haqorat eshitishi va uyatga tushishi mumkin:

“Kishi ko‘p so‘zlasa tortar azani,
Eshitur xalq aro ko‘p nosazoni
Sanga ko‘p so‘zlamaklik na fond,
Bo‘lar ko‘p so‘zlasang g‘iybatga oid”

(Rohati dil. –B.73).

(Ko‘p gapiradigan odam xalqdan ko‘p norozilik eshitadi, ko‘p gap bu g‘iybat hisoblanadi).

Jamiyatda doimo yolg‘on gapiradigan va o‘z so‘zida turolmaydigan odamlar ham bor. Adib bunday kishilar haqida biror narsani ishonib topshirsang, xiyonat bilan javob berishini aytadi, ulardan ehtiyot bo‘lishni maslahat beradi. Bog‘bon daraxtning mevali shoxlarini yaxshi ko‘radi, ularni avaylab asraydi, qiyshiq va unsiz novdalarini rahm-shafqatsiz kesadi. Jamiyatda voz kechuvchi va yolg‘onchilarga nisbatan munosabat bunday emas. Firibgarlik hech qachon oshkor etilmaydi, ertami-kechmi bu sir oshkor bo‘ladi, deb umid qilish soddalikdir. Shunday ekan, yoshlikdan rostgo‘ylikka ko‘nikish, kerakli ko‘nikmalarini egallah zarur.

Umuman olganda, Xojanazar Huvaydoning ijodida Qur‘on va hadislarning ta’siri chuqur va sezilarlidir. U o‘z davrining diniy-ma’rifiy muhitida yetishgan, tasavvufiy va axloqiy g‘oyalarga boy she’riyati orqali Qur‘on oyatlari va hadislar mazmunini badiiy ifoda etgan. Adibning ijodiy merosi Qur‘on va hadislarning badiiy talqinidir. U Qur‘on va sunnatdagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni chuqur anglab, ularni xalq tilida, xalqona ruhda va chuqur tasavvufiy-falsafiy mazmunda ifoda etgan. Bu jihatlar uning she’riyatini faqat adabiy emas, balki diniy-ma’rifiy meros sifatida ham qadrlashga asos beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qur‘oni karim. (Alouddin Mansur tarjimasi). –T.: Movorounnahr, 2019. –B.142.
2. Al Buxoriy. Al adab al-mufrad.–T.:Movorounnahr, 2006. –B.55

3. А.Худойбердиев. Жизнь и творчества Ходжаназара Хувайдо. –дисс.кан.наук. –С.163.
4. Huvaydo. Devon. (Nashrga tayyorlovchi: Q.Ro‘zimatzoda). –T.: Yangi asr avlodi, 2017. –B.9.
5. Huvaydo. Rohati dil. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
6. Zaripova, D. (2023). Khojanazar Huvaido is a major representative of uzbek classical literature. *Science and innovation*, 2(b1), 124-126
7. Bakhtiyorovna, Z. D. (2023). HISTORY OF THE HUVAYDO’S WORKS STUDY. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9(10), 4-7.